



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Mirzayeva Shirin

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0005-0035-636X

mirzayevashirin502@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlanishga oid tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar tahlil qilingan. Muallif ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mavjud imkoniyatlar, huquqiy asoslar va davlat dasturlarini ko'rib chiqib, ularning samaradorligini baholagan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sektorida ayollar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada zamonaviy bozor talablaridan kelib chiqqan holda mahalliy sharoitga mos innovatsion yondashuvlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar tadbirkorligi, xizmat ko'rsatish sohasi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion yondashuv, davlat dasturlari, ayollar bandligi.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ УСЛУГ

Мирзаева Ширин

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье анализируются организационно-экономические механизмы развития женского предпринимательства в сфере услуг. Авторы рассматривают существующие правовые основы и государственные программы поддержки предпринимательской активности женщин, а также оценивают их эффективность. Кроме того, представлены предложения и рекомендации по расширению участия женщин в сфере услуг. В работе подчеркивается необходимость внедрения инновационных подходов, адаптированных к местным условиям и требованиям современного рынка.

Ключевые слова: женское предпринимательство, сфера услуг, организационно-экономические механизмы, инновационные подходы, государственные программы, занятость женщин.

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN THE SERVICE SECTOR

Mirzayeva Shirin
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article analyzes the organizational and economic mechanisms for the development of women's entrepreneurship in the service sector. The author reviews the existing legal frameworks and state programs supporting women's entrepreneurial activity and assess their effectiveness. Additionally, the paper offers proposals and recommendations aimed at increasing women's participation in the service industry. The study highlights the need for innovative approaches tailored to local conditions and modern market demands.

Keywords: women's entrepreneurship, service sector, organizational and economic mechanisms, innovative approaches, government programs, women's employment.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki, ularning ishbilarmonlik salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali nafaqat oilaviy daromadlar, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham sezilarli hissa qo'shiladi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, aynan shu yo'nalishda ayollar tadbirkorligi keng imkoniyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularni biznes yuritishga jalb etish va xizmatlar sohasida faol ishtirokini ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar ajratilmoqda va biznesni boshlash uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Shunga qaramay, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda bir qator tashkiliy va iqtisodiy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan shu muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Maqolaning asosiy maqsadi — xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi global miqyosda dolzarb bo'lib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon banki, UNDP va boshqa muassasalar tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda xotin-qizlar tadbirkorligi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bandlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi (Qaror, 2017, 2020, 2021).

Jumladan, Hisrich va Peters (2002) o'zlarining "Entrepreneurship" asarida tadbirkorlik faoliyatining gender aspektlarini o'rganib, ayollarни tadbirkorlikka jalb etishda psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar o'zaro qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilganlar. Ular ayollar uchun biznes boshlashda imkoniyatlar va to'siqlarni muvozanatli baholash zarurligini ta'kidlaydi (Абдувоҳидова, 2021).

Milliy miqyosda esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, xususan, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga oid

2022–2026 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi” asosida bu sohadagi davlat siyosati va tashkiliy-amaliy mexanizmlar belgilab berilgan (Qaror, 2000).

Bu borada Abduvohidova (2021), To'xtayeva (2020) kabi olimlar xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, ularning xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyatini kuchaytirish yo'llari haqida tadqiqotlar olib borgan.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning mehnat resurslariga ko'p tayanadigan tarmog'i sifatida ayollar uchun mos va qulay soha hisoblanadi. Karimov (2019) va Nurmatova (2020) o'z tadqiqotlarida xizmatlar sektorining tarkibiy xususiyatlari, innovatsion rivojlanish yo'nalishlari va unda ayollar ishtirokining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib o'tganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar tadbirkorligi bo'yicha tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, aynan xizmat ko'rsatish sohasida ularni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tizimi chuqur o'rganilmagan. Shu bois, ushbu maqolada mazkur bo'shliqni to'ldirish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish va yangi yondashuvlar ishlab chiqish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga doir tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ketma-ketligi

Tadqiqotning asosiy yondashuvlari
Tizimli yondashuv – xotin-qizlar tadbirkorligini xizmat ko'rsatish sohasi tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqib, uning barcha tarkibiy elementlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.
Kompleks tahlil – iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy omillarni birgalikda o'rganish orqali xotin-qizlar tadbirkorligi rivojining omillari baholandi.
Taqqoslash usuli – O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi solishtirilib, milliy sharoitga mos keluvchi samarali mexanizmlar aniqlashga harakat qilindi.
Ma'lumotlar manbalari
Davlat statistika qo'mitasi, Savdo-sanoat palatosi, "Tadbirkor ayol" uyushmasi ma'lumotlari.
Xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, UNDP, ILO) hisobotlari.
Ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, tahliliy materiallar va so'rovnama natijalari.
Tadqiqot metodlari
Empirik metodlar: so'rovnama, intervyu, amaliyotdagи tadbirkor ayollar bilan suhbatlar orqali dastlabki ma'lumotlar yig'ildi.
Iqtisodiy-tahliliy metodlar: statistik tahlil, dinamik tahlil, SWOT tahlil, korrelyatsion tahlil orqali mavjud holat baholandi.
Grafik metodlar: xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar ishtirokining o'sish dinamikasi, tarmoqlar bo'yicha taqsimoti grafik shaklida ifodalandi.

Manba: muallif ishlansasi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar tadbirkorligi tanlandi. Sub'ekt sifatida esa davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, bank-moliya institutlari hamda bevosita tadbirkor ayollar ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashgan modeli ishlab chiqildi hamda amaliy tavsiyalar berildi.

Tadqiqot metodologiyasi xotin-qizlar tadbirkorligi va xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rni haqida keng qamrovli tahlilni amalga oshirishni, shuningdek, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga qaratilgan aniq tavsiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodlari orqali olinadigan natijalar, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatida mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining qariyb 26 foizi xotin-qizlar tomonidan boshqarilmoqda. Shundan katta qismi aynan xizmat ko'rsatish sohasi bilan shug'ullanadi. Bu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish tarmog'i xotin-qizlar uchun salmoqli imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Biroq, mavjud salohiyatga qaramay, xotin-qizlar tadbirkorligining to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillar mavjud.

Ayollarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashida ruxsatnomalar olish, hujjatlar tayyorlash, ro'yxatdan o'tish jarayonlarining murakkabligi ularga noqulaylik tug'diradi. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish infratuzilmasining yetarli emasligi bu muammoni yanada keskinlashtiradi (Qaror, 2017, 2021).

Xotin-qizlarning kredit olish imkoniyatlari erkaklarga nisbatan ancha past. Banklar tomonidan beriladigan kreditlar uchun zarur garov ta'minoti yo'qligi, huquqiy bilimlarning yetishmasligi ularga moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Jamiyatda xotin-qizlarning faqatgina an'anaviy kasblar bilan shug'ullanishi kerak degan qarashlar ularning biznes yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab ayollar oilaviy majburiyatlar tufayli ishbilarmonlik faoliyatini cheklab qo'yishga majbur bo'lishadi (Hypmatova, 2020).

1-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha SWOT-tahlili

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
<p>A. Xizmat ko'rsatish sohasi mehnat resurslariga tayanadigan, ayollar uchun qulay yo'nalish hisoblanadi;</p> <p>C. Davlat tomonidan xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar va dasturlar mavjud;</p> <p>D. Mahalliy bozorlarda ayollar tomonidan tashkil etilgan xizmat ko'rsatish bizneslariga talab yuqori;</p> <p>F. Ayollar tabiatan muloqotga kirishuvchan, mijozlar bilan ishlashda sezgir va mas'uliyatlari bo'ladi.</p>	<p>A. Ayollar tadbirkorligiga oid bilim va malaka yetishmovchiligi, ayniqsa raqamli texnologiyalar sohasida;</p> <p>B. Moliyaviy resurslarga, imtiyozli kredit va grantlarga yetarli darajada kira olmaslik;</p> <p>C. Biznes yuritishdagi byurokratik to'siqlar, hujjatlashtirishdagi murakkabliklar;</p> <p>D. Ijtimoiy stereotiplar va oilaviy mas'uliyatlarning haddan tashqari yuk bo'lishi.</p>
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<p>A. Xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanish imkoniyatlari keng – onlayn xizmatlar, freelancing, elektron tijorat;</p> <p>B. Xotin-qizlar uchun maxsus grantlar, startaplar va kasbga qayta tayyorlash markazlari sonining ortib borayotgani;</p> <p>C. Tashqi bozorlarga xizmat eksporti orqali ayol tadbirkorlarning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyati;</p> <p>D. Ayollar tadbirkorligini rag'batlantiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari (UNDP, ILO va boshqalar).</p>	<p>A. Xalqaro iqtisodiy inqirozlar va ichki inflyatsiya xatarlarining kichik tadbirkorlarga kuchli ta'siri;</p> <p>B. Raqobatbardosh muhitning kuchayishi va xizmat sifatiga bo'lgan talabning ortishi;</p> <p>C. Moliyaviy savodsizlik tufayli noto'g'ri investitsiyalar va biznes yuritishdagi xatoliklar;</p> <p>D. Ayrim hududlarda internet infratuzilmasining zaifligi, raqamli xizmatlarning to'liq rivojlanmaganligi.</p>

Manba: muallif ishlanmasi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab ayol tadbirkorlar biznesni yuritishning zamonaviy usullari, marketing strategiyalari, raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli malakaga ega emas.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida qator dasturlar amalga oshirilmoqda. "Ayollar daftari" orqali kredit va subsidiya ajratish, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi, "Biznes ayol" assotsiatsiyasi faoliyati ayollarning xizmat sohasiga kirib kelishini jadallashtirmoqda. Shuningdek, ayollarga mo'ljallangan "startap" loyihalarning ko'paygani innovatsion faoliyatni rag'batlantirmoqda (Karimov, 2019; UNDP, 2020).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar yetarli bo'lsa-da, ularni to'liq ishga solish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu borada moliyaviy savodxonlikni oshirish, huquqiy ko'mak berish, raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va xotin-qizlar uchun alohida xizmat infratuzilmasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini o'rghanish natijasida, tahlil qilishdan ko'rinish turibdiki, bu sohada ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, shu bilan birga, bir qator zaif tomonlar va tahdidlar ham mavjud¹. Tadbirlarni amalga oshirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ta'lim va malaka oshirish tizimini rivojlantirish va gender stereotiplarini bartaraf etish zarur. Shuningdek, innovatsion imkoniyatlar va xalqaro hamkorlikni kengaytirish xotin-qizlar tadbirkorligining iqtisodiy o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni tutadi. Ayollar biznesining aynan xizmat sohasida faol bo'lishi ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish, kambag'allikni kamaytirish va oilalarining farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi (World Bank, 2023; Халқаро меҳнат ташкилоти, 2021)².

Biroq bu sohada hali ham mavjud tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy to'siqlar ularning tadbirkorlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Xotin-qizlarning xizmat sohasidagi ishtiroki ularning iqtisodiy faolligini oshiradi;
- Tadbirkor ayollar uchun moliyaviy, huquqiy va maslahat ko'maklariga ehtiyoj yuqori;
- Innovatsion va raqamli xizmat yo'nalishlariga ayollarni jalb etish orqali samaradorlik oshiriladi.

Yuqoridaqilarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni keltiraman:

1. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmalarni rivojlantirish – ayollar uchun mo'ljallangan biznes-inkubatorlar, ko'p funksiyali xizmat markazlarini tashkil etish;
2. Moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish – imtiyozli mikrokreditlar, garovsiz kredit liniyalarini va grant dasturlarini kengaytirish;
3. Raqamli savodxonlikni oshirish – xotin-qizlar uchun zamonaviy texnologiyalar va onlayn xizmatlardan foydalanish bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish;
4. Huquqiy va maslahat xizmatlarini kuchaytirish – ayollar tadbirkorlariga bepul huquqiy maslahatlar va biznesni boshlash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish;
5. Ijtimoiy stereotiplarni yengish bo'yicha targ'ibot ishlari – ommaviy axborot vositalari orqali ayollar tadbirkorligining ijobjiy namunalarini keng yoritish.

Yuqoridaqilarning amalda qo'llanilishi xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni faol iqtisodiy subyekt sifatida shakllantirish imkonini beradi.

¹ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

² www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portalı.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Karimov I. (2019) Rivojlanayotgan xizmatlar sektori: muammolar va ularni hal etish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim. №2. – B. 31–35.

Qaror (2000) O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan. 2012 yilda yangi tahriri qabul qilingan.

Qaror (2017) "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydag'i "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari" PQ – 5113 son Qarori.

UNDP (2020) Women's Entrepreneurship Development Programme (WEDP): Global Outlook and Local Adaptation. – New York: United Nations Development Programme, – 58 p.

World Bank (2023). Women, Business and the Law 2023. – Washington, DC: World Bank Group, – 145 p.

Абдувоҳидова А. (2021) Хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантиришда давлат қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари // Иқтисодиёт ва инновацоён технологиялар. – №3. – Б. 45–50.

Қарор (2022) "Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг жамиятдаги фаолигини оширишга oid 2022–2026 йилларга мўлжалланган давлат дастури тўғрисида" // Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори, 2022 йил 7 марта, №ПҚ-87.

Нурматова Р. (2020) Хизматлар соҳасининг ривожланиши ўйналишлари ва истиқболлари // Ўзбекистонда бозор, пул ва кредит. – №5. – Б. 22–26.

Тўхтаева Г. (2020) Хизмат кўрсатиш соҳасида хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантиришининг иқтисодий механизмлари // Иқтисодиёт фанлари номзоди диссертацияси. – Т.: – 132 б.

Халқаро меҳнат ташкилоти (2021). Аёлларни тадбиркорликка жалб этишда тўсиқлар ва имкониятлар. – Женева: ILO, – 67 б.

Ҳисрич Р., Питерс М. (2002) Тадбиркорлик. – Т.: Shark, – 412 б.